

DRAMATIK DOSTONDA “SOF ODAM” VA “NOPOK JAMIYAT” BADIY TALQINI

Matnazarova Saida Satimbay qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

saidamatnazarova62@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Omon Matjonning “Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh” dramatik dostonida tasvirlangan “Sof odam” va “Nopok jamiyat” badiiy talqini tahlil etib berildi.

Kalit soʻzlar: zamonaviy doston, Omon Matjon, Atlantida halokati, “Sof odam”, “Nopok jamiyat”, badiiy talqin.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the “Pure Man” and “Impure Society” depicted in the dramatic epic poem “The Fall of Atlantis or American Marriage” by Omon Matjon.

Keywords: modern epic poem, Omon Matjon, The Fall of Atlantis, “Pure Man”, “Impure Society”, artistic interpretation.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация образов “Чистого человека” и “Нечистого общества”, представленных в драматической эпической поэме Омона Матжона “Падение Атлантиды, или Американский брак”.

Ключевые слова: современная эпическая поэма, Омон Матжон, Падение Атлантиды, “Чистый человек”, “Нечистое общество”, художественная интерпретация.

Kirish. Omon Matjonning “Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh” dramatik dostoni 1968-yilda Samarqand davlat universitetida oʻqib yurgan paytida talabalik yillarida yozilgan. Bu haqida shoirning oʻzi “Yarador chaqmoq” kitobida “Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh” dramatik dostonini kiritib, shu asarning yaratilish tarixi haqida kichik izoh bergan [1.45].

Bu dostonga asos boʻlgan hayotiy voqeani shoirga ustoz professor Nuriddin Shukurov maʼruza paytida gapirib bergan. Ijodkor ruhiyatiga kuchli taʼsir etgan ana shu voqea kun kelib, dramatik doston boʻlib yaralgan. Shoirning maʼlumot berishicha, mazkur dramatik doston asosida 1972-yilda telepostanovka ham qilingan. Aytish mumkinki, bu doston Omon Matjon ijodida oʻrgamchik dostonlardan biri boʻlib qoldi. Yaʼni shoir ijodining ilk bosqichida “doston” janrida oʻz qalamini sinab koʻrish maqsadida dastlab, zamonaviy-maishiy mavzuda ana shu dostonni yozgan.

Adabiyotlar tahlili. Dostonning kirish qismida “ushbu fojiaga aloqasi boʻlmagan sirli Atlantida oroliga bagʻishlov” degan sarlavha ostida 4 misrali 4 band hamda ikki misrali 4 qator sheʼr oʻrin olgan. Jumladan:

Goʻzal edi senda oftob,

Goʻzal edi sendagi tonglar.

Goʻzal edi sendagi hayot,

Goʻzal edi senda odamlar!

Atlantida – sehrdi diyor,

Atlantida – sehrlil orol! [2.45]

Doston she'riy uslubda yozilgan. Unda voqealar Nyu-Yorkda sodir bo'ladi. Aka-uka Uilyam Xanter hamda Fred Xanterlarning qashshoqlikda, nihoyatda nochor ahvolda yashashi, kunlardan bir kuni uka Fred yo'ldan bank xodimlari tasodifan tushirib qoldirgan juda katta summadagi pulni topib olishi va shu pul sabab uning mashhur bo'lib ketishi voqealari hikoya etiladi. U bu pullarni uyga olib kelgach, aka Uilyam pullar hisobiga boyib ketishlari haqida xayol suradi. Ammo Fred halollik bilan bu pullarni davlatga topshiradi. Aynan shu nuqtadan boshlab, dostonda Fred timsolida "Sof odam" badiiy talqini boshlanadi. Uni Amerika jamiyati alqab, uning ko'rsatgan halolligi uchun uy, pul, mashina berishadi. U narsalarning barchasini akasiga topshirib, uydan bosh olib chiqib ketadi. Ammo firibgarlik, boylik ortidan yugurib ketayotgan Amerika jamiyati bu jamiyatdagi yagona "Sof odam" Fredga ham "Nopoklik" tamg'asini bosadi. Fredning otasi ham nihoyatda halol yashab, qashshoqlikda vafot etgan. Akasi uni pulni o'zlashtirishga undaganida Fred akasiga shunday deydi:

"Fred

Olib borsak, qaytarmaslar quruq....

Mukofot...

Sho'rlik otam pok yashashni talab qilardi.

Uilyam

Ko'zingchi och, Fred, axir bu ishing uchun

Hech kimdan ham olmagaysan tashakkur

Mutlaq!

Pokizalik qayga eltdi otang sho'rlikni?

Hamon uning qabri faqir, lavhasiz yotar.

Shuni bilki, yo mansabning, yo pulning hukmi

Ikki dunyo ishiga ham bo'lar sarlavha!

Tushunsang-chi! Yeng ichida, jim sarf etamiz,

Oila ham qaddin tiklar, otamizning ham

Mozorini bekamu ko'st tuzatamiz, bas!" [3.55]

U akasining pulni o'zlashtirish haqidagi taklifini rad etadi. Uning ko'rsatgan halolligi Amerika matbuotida bong bo'lib chalinadi. Omon Matjon "Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh" dramatik dostonida "Sof odam" va uning "nopok jamiyat" ta'sirida Fred ham "nopoklikka o'ralashib" boylik ilinjida millioner keksa bir ayolga uylanishi hikoya etiladi.

Aslida Fred bu taklifga rozi emas edi. Kayf ichida do'sti Garri bilan Ella uni o'z tuzog'iga tushirishadi. Ularning shum niyatlari tufayli Fred o'sha keksa, kasal millioner ayolga uylanish, uning o'limidan so'ng, ayolning boyligiga merosxo'r bo'lib, merosning ellik foizini Garriga berish haqidagi xatni mast ravishda imzolab beradi.

Fred bolalikdan beri nogiron bir qiz Joannani sevar edi. U pul va boylikni shaxsiy baxtdan ham ustun qo'yuvchi jamiyatning hiyla-nayranglarini yengib chiqa olmaydi.

Aksincha, shu “nopok jamiyat”ning navbatdagi qurboniga aylanadi. Sevgilisi Joanna Fredning bu xato ishidan xabar topgach shunday dedi:

“Joanna

O‘limtikdan o‘ziga jon tilagan quzg‘un,

Jo‘na, qon va pulni hidini sochma uyimga.

Daraxtlarsiz bu shaharning bahori ham yo‘q,

Osmono‘par uylar – asr piramidasi,

Minglab gado firavnga shisha dafina.

Ke-et!!” [4.96].

Dramatik dostonda millioner ayol Barbara xonim o‘limidan so‘ng Fredning o‘z merosiga egalik qilishi uchun “o‘zini erkaklik iqtidoridan mahrum qildirgan taqdiridagina boylikka ega chiqishi mumkin”ligini yozib qoldiradi.

Demak, shoir pul-boylik uchun insonlar bir-biriga umuman rahm-shafqat eta olmaydigan “nopok”, “beor”, “noinsoniy” Amerika jamiyatini tanqid tig‘i ostiga oladi. Aslida-chi? Fred shu qadar tubanmidi? Yo‘q, u shunchaki mast holatda do‘stlari shifokor Garri Xoll hamda Ellaning tuzog‘iga tushadi. Garri millioner ayol Barbara xonimning shifokori. Barbara gazetaga “yosh er kerak” deb, e‘lon bergan. Xullas, Garri Fredga Barbaraga uylanish taklifini berib, ahdnoma shartnomaga imzo chekdirib oladi. Axir Barbara xonim uchun Fred Amerika jamiyatidagi yagona “Sof odam” edi.

Joanna uning xiyonatini kechira olmaydi. U Fredni “Ket uyimdan, sayoq, qarg‘a yurak... yo‘lama” – deb haydab soladi.

Fred Barbaraning dahshatli shartidan voz kechaman deb ayyuhannos solganida, makkor raqqosa Ella shunday deydi:

“Ella:

(vazmin bir ohangda)

Xo‘-o‘sh! Menimcha tamom bo‘pti qabih drama,

Bir rostakam qurboni ham borga o‘xshaydi!

Bugun butun Amerika kular, eshitsa

Shprints bilan ish ko‘ruvchi bu ritsarlardan!

Lekin biling, sizday ahmoq emas Ella ham –

Barchangizga hoki erur mana bu qog‘oz,

Siringiz ham, umringiz ham mening qo‘limda!!!”.

Demak, “Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh” dramatik dostonida boylik, mol-davlat uchun zurriyot qoldirish, nasl qoldirish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan erkak fojiasi, uni bu fojiaga yo‘liqtirgan amerikalik Garri va Ella singari tulkisifat nopok insonlarning basharasi ochib tashlanadi.

Omon Matjon ijodida bu dramatik doston ilk ijodiy bosqichida yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, jiddiy bir ijtimoiy muammoni ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan. Dostonida

“Sof odam” va “Nopok jamiyat” zidma-zidligi orqali shoirning adabiy-estetik qarashi katta mahorat bilan yoritilgan.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Dramada qalamga olingan “Amerikacha nikoh” shu bugungi kunda avj olgan “Qalbaki nikoh” yoki “Manfaatli nikoh”larni fosh etishga qaratilib, insoniyatning boylik, meros uchun naqadar tuban ketishi badiiy taftish etilgan. Dostonda amerika adabiyotining yirik romannavisi Teodor Drayzer nomiga ham nozik ishora beriladi. Bu quyidagi parchada Garri tilidan aytiladi:

“Garri

Menga qara, do‘stim, sen ham, Joanna ham

O‘ylab ko‘rsa, xuddi tug‘ishganim singari!

Sizlar tushgan ahvol juda mushkul, do‘stginam,

Drayzerni esla, garchand ikki kishining

Holi xarob, tayanchi ham agar yo‘q bo‘lsa,

Bir tasodif yuz bermasa qutlug‘an qutlug‘ –

Halokatga keltiradi hamma yo‘l, tamom!” [5.76].

Tahlillar va natijalar. Sovet davri adabiyotshunosligida “Amerika” faqat pulga o‘ch, kapitalist mamlakat sifatida tanqidiy yondoshilar edi. Omon Matjonning ustoz N.Shukurov ham bu voqeani aynan ana shu maqsadda talabalarga gapirib bergani shubhasizdir. Teodor Drayzer esa o‘zining “Amerika fojiasi”, “Baxtiqaro Kerri”, “Jenni Gerxardt” singari qator romanlarida amerikaliklar ma’naviyatini izdan chiqarayotgan ijtimoiy sabablar haqida yozgan edi.

Xulosa. Bugun sokin nigoh bilan o‘ylab ko‘rsak, har qanday mafkuraviy qarashlarni bir chetga yig‘ishtirib, Omon Matjonning “Atlantida halokati yoki Amerikacha nikoh” dramatik dostoniga nazar tashlasak, unda shoir “manfaatli shartnoma nikohlar” nafaqat amerikaliklarning balki, butun insoniyatning katta ma’naviy halokati ekani anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matjon O. Atlantida yoki Amerikacha nikoh/ Yarador chaqmoq. – Toshkent:Yosh gvardiya,1979. – B.45